

SAMARQAND SHAHRI MUQADDAS QADAMJOLARI TOPOGRAFIYASI

Tursunov Javlon Akrom o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Samarqand orqali sharq va g'arb savdosi amalga oshirilgan ekan, Buyuk ipak yo'lida Samarqand muhim bo'g'inlaridan biri hisoblangan. Shahar savdogarlari Xitoy, Eron, Misr, Suriya, Hindiston, Vizantiya bilan savdo-sotiq qilar edilar. Aynan Samarqandda sharq va g'arb madaniyatlari o'zaro to'qnashgan va bir-birini boyitgan. Shuning bilan birga Samarqand shahri muqaddas qadamjolari g'arb va sharq xalqlarini doimiy ravishda qiziqtirib kelgan. Maqolada Samarqand shahrining muqaddas qadamjolari va ularning topografiyasi arxiv manbalari va tarixiy manbalar asosida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Mirzo Ulug'bek, Tillakori, Sherdor, Maroqand, Abu Hakim Samarqandiy, Suzangaron, Choraha, Shayxzoda, Feruza, Korizgoh.

ТОПОГРАФИЯ СВЯЩЕННЫХ МЕСТ ГОРОДА САМАРКАНД

Аннотация. Самарканд, расположенный на Великом шёлковом пути, играл важную роль как один из ключевых узлов в торговле между Востоком и Западом. Торговцы города вели активные торговые отношения с Китаем, Ираном, Египтом, Сирией, Индией и Византией. Именно в Самарканде происходило культурное взаимодействие и взаимное обогащение восточных и западных традиций. Вместе с тем, святые места Самарканда на протяжении веков вызывали интерес у народов Востока и Запада. В статье анализируются святые места города Самарканд и их топография на основе архивных и исторических источников.

Ключевые слова: Мирзо Улугбек, Тиллякари, Шердор, Мараканда, Абу Хаким Самарканди, Сузангарон, Чорраха, Шайхзаде, Феруза, Каризгах.

TOPOGRAPHY OF THE SACRED SITES OF THE CITY OF SAMARKAND

Annotation. Samarkand, located along the Great Silk Road, played an important role as one of the key hubs in trade between the East and the West. The city's merchants maintained active commercial relations with China, Iran, Egypt, Syria, India, and Byzantium. It was in Samarkand that the cultures of the East and the West encountered and enriched each other. At the same time, the sacred sites of Samarkand have long attracted the interest of peoples from both East and West. This article analyzes the sacred sites of the city of Samarkand and their topography based on archival and historical sources.

Keywords: Mirzo Ulugbek, Tillya-Kari, Sherdor, Marakanda, Abu Hakim Samarkandi, Suzangaron, Chorraha, Shaykhzoda, Feruza, Karizgah.

Kirish. Samarqand jahondagi eng qadimgi umri boqiy shaharlardan biri, Amir Temur Sohibqiron davlatining poytaxti, ilm-fan va ma’rifat markazidir. Samarqand yozma manbalarda turli shakllarda qayd etiladi. Mug’ tog’idan topilgan so’g’diy hujjatlarda shahar Samarkant [25], qadimgi Yunon va Rim mualliflari asarlarida Marakanda, Marganda va Margandi [15] shakllarida qayd etiladi. Arablar esa uni Samaroy deb ataganlar [2]. Italiyalik sayyoh va adib Marko Polo (1254-1324)ning kitobida shahar Samarqan, Sarmakan va Sanmarkan shakllarida tilga olinadi [15]. Forschada Samarqand deyilgan [2]. Xitoyning qadimgi va o’rta asr yilnomalarida Samarqand shahar, viloyat va ularning hukmdorlari ham Kan yoki Samogan, Limogan, Sivingin va Saymaerkan shakllardagi atamalar bilan ta’riflanadi [6]. Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg’ariy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida Samarqand «Semirqand» ya’ni «semiz shahar» ma’nosini bildiradi, degan fikr bayon etilgan. Bobur mazkur shaharni ta’riflar ekan, «Mo’g’ul va turk ulusi Semirqand (Semizkand) derlar» deb yozadi [11]. Bulardan tashqari, turli davrlarda bitilgan tarixiy manba va kitoblarda shahar nomi Samariana, Saramanka, Sakanna, Sanmangan, Samakiyon, Sumron, Shamarkan, Samaroy, Simroyat kabi shakllarda ham qayd etiladi [17]. Bu atamalarning asosi, albatta o’tmishda tarixan mazmundor ma’lum bir ma’noni anglatgan. Shu boisdan, fanda Samarqand toponimining yuzaga kelishi va semantikasi borasida turli xil naql hamda fikr va mulohazalar keltirilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Samarqand shahri nomini ayrim xorijiy toponimistlar sanskritga samariya - «yig’in» yoki «anjuman» so’zidan olingan degan fikrni aytganlar. «Tarixi Tabariy», «Samariya» va «G’iyos ul-lug’ot» asarlarining mualliflari yozishlaricha, «Samar»- podshoning nomi bo’lib, «kand» esa turkiy tilda «shahar» degan ma’noni anglatgan. Demak, Samarqand - Samar shahri demakdir. Ularning yana bir fikricha, Yaman podsho zodagonlaridan bo’lmish Shamar So’g’d aholisi bilan jang qilib, shaharni buzib vayronaga aylantirgan. U qayta boshdan tiklanib, Shamarkand nomi bilan yuritilib ketgan. Uchinchi fikrlaricha esa shahar hududida Samar ismli e’tiborli shaxs tomonidan qazilgan buloq bo’lgan. Aholi ushbu buloq atrofida yig’ilib, o’rnashgani sababli buloqboshi mavzei Samarqand, ya’ni Samarkan nomi bilan atalgan ekan [3].

Abul Hakim Samarqandiyning «Qandiya» kitobini o’zbekcha nashrining tarjima va nashr qilgan K.Kattaev «Samar» so’zining tub ma’nosi shaxs nomini emas, balki boshqa bir sifat bilan bog’liq [4], degan fikrni ilgari suradi. K.Kattayev «Navoiy asarlari lug’ati»dagi «Samar» so’ziga berilgan ta’rifga [24] e’tibor qaratib, Samarqand - mevazor, mashhur, afsonaviy shahar kabi ma’nolarni bildiradi, deb yozadi [4].

Samarqand toponimi garchi, qadimgi va o’rta asr yozma manbalarida xilma-xil shakllarda ifodalanib, uning kelib chiqishi turlicha talqin etilgan bo’lsa-da, biroq, bu tarixiy atamalar qachon yuzaga kelganligi borasida fanda hamon ilmiy jihatdan asoslangan ilmiy konsepsiya o’z talqinini topmagan.

Shaharning qadimgi xarobalari - Afrosiyob yodgorligida keyingi yillarda amalga oshirilgan arxeologik qazishlardan aniqlanishicha, bu ko'ha maskan mil.avv. VIII asrda ilk bor lo'mboz loyli devor bilan o'rab olingan [14]. Afrosiyob yodgorligining ostki qatlamlarida qayd etilgan ashyoviy topilmalar majmuasi mazkur eng ko'ha istehkomli shaharni mil.avv. VIII-VII asrlarga mansub ekanini ko'rsatmoqda [14].

Ma'lumki, O'zbekiston hududi, shu jumladan Samarqand ham o'z tarixi davomida bir necha marta chet el bosqinchilarga qarshi o'z mustaqilligini saqlab qolish maqsadida mardonavor kurashib kelgan. Miloddan avvalgi 329-327 yillarda Samarqand aholisi Spitamen boshchiligida Makedoniyalik Aleksandr bosqiniga qarshi kurash olib boradi. Yunon-Baqtriya va Kushon podsholiklari davrida Samarqandda hunarmandchilik, savdo-sotiq, madaniyat va shaharsozlik yuksak darajada rivojlanadi. VI asrdan boshlab O'rta Osiyo hududlari, jumladan Samarqand ham Turk hoqonligi tarkibiga kiradi.

712 yilda Samarqand arab bosqinchilari tomonidan zabt etiladi. Shahar VII - IX asrlarda arab bosqinchilariga qarshi yirik qo'zg'olonlar: Muqanna va Rofe ibn Lays boshchiligidagi chiqishlarning markazi bo'lgan. IX -asrning 20 yillaridan boshlab Samarqand somoniylar davlatining poytaxti bo'lgan. Somoniylar poytaxti Buxoroga ko'chirilgandan (888 y) keyin ham Samarqand Movarounnahrning eng yirik hunarmandchilik, savdo va madaniyat markazlaridan biri bo'lgan. Aynan shu davrda dastlabki madrasalar, kutubxonalar vujudga kelgan [25].

XI asrdan boshlab Samarqand qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan. XI asr oxiri-XII asr boshlarida shahar saljuqiylar davlati tarkibida, XII asrdan qoraxitoylarga tobe bo'lgan. 1210-yildan Muhammad Xorazmshoh Samarqandni qoraxitoylardan ozod qilgan. Mana shu davrga oid manbalarda Samarqandning ma'muriy-hududiy tuzilishi va joy nomlari saqlanib qolgan. O'rta asr tarixchilari Istaxriy (X asr), Ibn Xavqallarning (X asr) ma'lumotlarida Samarqand viloyatiga qarashli 12 ta rustoq (tuman) tilga olinadi. Bular Bunjikat yoki Panjakent, Varag'sar, Maymurg', Sanjarfig'on, Darg'am, Abg'ar, Yarket, Burnamed, Buzmadjen, Kabudanjaket, Vedar va Marzbonlardir [13].

XVI asrda shayboniylar sulolasining poytaxti Buxoroga ko'chirilganda ham Samarqand Buxoro xonligi davrida ham muhim iqtisodiy va madaniy markaz bo'lib qolaverdi. Ammo Buxoro xonligida kechgan o'zaro urushlar shahar taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shunga qaramasdan iqtisodiy va ma'naviy an'analar davom etdi. Hattotlik va minatyura san'atining Samarqand maktabi vujudga keldi. Yalangto'sh Bahodir hokimligi davrida Registon maydonida Sherdor (1619-1636), Tillakori (1646-1660) madrasalari, Xo'ja Axrori Valiy qabri oldida Nodir devonbegi madrasasi va boshqa binolar qurildi. Bu vaqtga kelib Samarqand hududining ma'muriy bo'linishida yana bir qator o'zgarishlar yuz berdi. Viloyat geografik nomlari bilan shug'ullangan V.L.Vyatkin temuriylar, shayboniylar va ashtarxoniylar davridagi Samarqand tumanlari haqida gapirar ekan, ularning nomlari va chegaralari haqida batafsil to'xtaladi.

Shovdor tumanidan Buxoro chegaralarigacha Anhor tumaniga qarashli bo'lgan. Qoradaryo va Oqdaryo oraliq'ining yuqori qismi Nimsug'ud yoki Sug'udixurd tumani deb atalgan, Zarafshonning o'ng qirg'og'i bo'ylab past tomonda Cho'ponotaga qadar Kabud tumani, undan sharq tomonga qarab yo'nalishda Sangzor vodiysiga qadar Yoryayloq tumani joylashgan. Kabud tumanidan shimol tomonda Yangianhor tumani chegaralari bo'lib, bu tuman shayboniylar davriga kelib tugatilgan. So'nggi temuriylar davrida Sheroz va Aliobod tumanlari tashkil etilgan edi. Ofarinkent tumani esa shimolda Sog'arj viloyati bilan chegaradosh bo'lgan. Bu viloyat Sog'arj yoki Dushanbeqo'rg'on nomi bilan ashtarxoniylar davrida Samarqand viloyatiga qo'shib olinadi [29].

Natijalar va muhokama. Ko'rib chiqilganidek, Samarqandning qisqacha siyosiy tarixi uchta davrga bo'linadi. Bu mo'gullar istelosigacha bo'lgan qadimgi Samarqand, Amir Temur davrida qayta qurilgan va ruslar tomonidan bosib olingan Samarqand va nihoyat Rossiya imperiyasi va sovet davrida qurilgan yangi Samarqanddan iboratdir. Shaharning umumiy muhofaza etiladigan hududlari jami 798 gektarni tashkil etib, shundan Afrosiyob shaharchasi 218 gektar, o'rta asr Samarqand shahri (eski shahar – M.Yu.) 320 gektar va “Yangi shahar” 260 gektarni tashkil etgan [31]. Hozirgi vaqtda Samarqand shahrining muqaddas qadamjolari asosan shaharning o'rta asrlar qismida (Afrosiyob shaharchasi hududidagi mo'g'ullar istilosidan keyin paydo bo'lgan qadamjolar bilan birga) joylashgan. Shuni hisobga olib ushbu tadqiqot ishida shaharning o'rta asrlar qismidagi muqaddas qadamjolar asosiy obyekt qilib olingan.

O'rta asrlar Samarqandining ma'muriy markazi – Amir Temur davrida qurilgan qal'a (1369-1370 - yillar) shahar Jome'sining g'arbida-Novadon arig'ining o'ng tomonida joylashgan [8]. U umumiy 34 gektar maydonni egallagan va 8 metr balandlikdagi paxsa va xom g'ishtlardan iborat devor bilan o'ralgan. Amir Temurning arki oliysida ikkita darvoza bo'lib, birinchisi Nuriddin Basir maqbarasi yonidagi Sharqiy (Samarqand) va ikkinchisi Janubiy (Buxoro) darvozalari hisoblanadi [18]. Birinchi darvoza Registon tomonga, ikkinchi darvoza esa hozirgi Universitet xiyoboniga qaragan.

XVI asr oxiriga oid hujjatlarda Samarqanddagi quyidagi masjidlar aytib o'tilgan: Xo'ja Is'hoq, Sari Bozorchai Chorraha, Xo'ja Sodiq Xitoy, Rabot, Xo'ja Anqo, Mulloqand, Angushtak, Sang taratang, Chap, Kabdu saririk, Bozori asp, Xishtip, Yumaloq binom, Amir Muhammad Xo'ja, Kulicha, Bek Muhammad, Nigori, Mirza Kazak, Mir Kara Balji, Mulla Shayx Muhammad Devon, Juzjoniya, Mir Qora Bahri, Xo'ja Tezguzar, Laklak, Tangriquli va boshqalar [1.30]. Ularning nomlari ko'pincha ular joylashgan ko'chalar va mahallalar nomlari bilan bir-biriga to'g'ri keladi.

XVII asrga kelib Samarqandda ko'plab muqaddas qadamjolar-mozorlar, shu jumladan Ruhobod maqbarasi, Nuriddin Basir maqbarasi, Shohizinda kompleksidagi maqbaralar, Doniyor payg'ambar maqbarasi, Burhoniddin Marg'inoniy, Abu Mansur al-Moturudiy, Xo'ja Abdulla, Xo'ja Abdi Berun, Xo'ja Abdu Darun, Cho'ponota, Qozizoda Rumiy, Xo'ja Ahrori Valiy majmuasi kabi shayxlar va olimlarning

mozorlari ham mavjud edi [19]. Samarqandda bir nechta muhim diniy-memorial komplekslar vujudga keladi. Bular Muhammad payg‘ambarning amakivachchasi Qusam ibn Abbos maqbarasi atrofida Shoxizinda kompleksi, Islom ilohiyotshunos olimlar dafn etilgan Chokardiza qabristoni, Amir Temur va temuriylar dafn etilgan Amir Temur maqbarasi, Muhammad Sulton honaqosi va madrasasini o‘z ichiga oluvchi majmuadir [28]. Registon maydonida janub tomonda XIV asrga oid manbalarda eslatib o‘tilgan jome’ masjidi bo‘lgan. U Ko‘k masjid yoki Umar masjidi deb nomlangan. XV asrning birinchi yarmida Aliko Ko‘kaldosh tomonidan qurilgan masjid ushbu masjid ustiga qurilgan bo‘lishi mumkinligi taxmin qilingan. Sherdor madrasasining janubi olib borilgan qazishmalarda masjid poydevorining qoldiqlari topilgan [20]. XVII asrda Sherdor madrasasidan 35 metr shimolda to‘rtburchak tarxga ega bo‘lgan Mag‘ok masjidi qurilgan.

XVII asrda Mirzo Ulug‘bek madrasasining janubi-g‘arbida Olim Shayx tomonidan (1631/1632 yillarda vafot etgan) qurilgan honaqoh XVIII asrdagi inqiroz vaqtida vayron bo‘lgan. Uning aniq joylashuvi noma’lumdir [21].

XVI asrning 30-yillarda Mirzo Ulug‘bek madrasasidan janubda shayboniy Abu Said madrasasi qurilgan [21]. Biroq u saqlanib qolmagan. G. A. Pugachenkova keltirishicha, 1970-yillarda Registonga tutash hududda obodonlashtirish ishlari davomida og‘ir texnika ishlatilganligi natijasida O‘rta asr Samarqandining XIV-XVII asrlarga oid arxeologik qatlamlari arxeologik kuzatuv ham olib borilmasdan yo‘q qilingan [20].

Samarqand shahri muqaddas qadamjolari joylashuvida quyidagi asosiy hududlar ajralib turadi:

1. Registon hududi Mirzo Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalari bilan ta’lim va ma’naviy markaz rolini o‘ynagan.

2. Shaharning shimoliy-sharqiy hududi Shohizinda majmuasi ziyoratgoh va oilaviy maqbaralar joylashgan joy sifatida alohida qimmatga egadir. Shohizinda XI asrdan XIX asrgacha bunyod etilgan tarixiy-me’moriy majmua bo‘lib, uning bunyod bo‘lishi Qusam ibn Abbosga ehtirom kulti bilan bog‘liq.

3. Janubi-g‘arbiy hudud Amir Temur maqbarasi bilan sulolaviy dafn va siyosiy hokimiyatning ramzi sifatida ajralib turadi. Amir Temur maqbarasi sulolaviy dahmalar ichida noyob obyekt bo‘lib, Temuriylar sulolasining qudrati va buyukligini anglatadi.

4. Shahar atrofidagi muqaddas qadamjolar.

Amir Temur jome masjidi Amir Temurning buyrug‘i bilan qurilgan bo‘lib Registondan Siyob bozoriga boorish o‘qida asosiy o‘rinni egallaydi. Uning kattaligi va o‘z vaqtida bayram va juma ibodatlarini amalga oshirilganligi masjidning ijtimoiy-diniy markaz sifatida ahamiyatini bildiradi.

So‘fiylik bilan bog‘liq qadamjolar masalan, Xo‘ja Ahror Valiy majmuasi shahar hududining chekkasida joylashgan bo‘lib, Nodirdevonbegi tomonidan bunyod etilgan madrasa va Nomozgoh masjidid bilan birga bir geografik makonda joylashgan.

Xulosa. Sovet davrida ko‘plab diniy inshootlar toptaldi, vayron qilindi yoki boshqa maqsadlarda foydalanildi. 1990-yillardan boshlab madaniy meros obyektlari, shu jumladan masjidlar va maqbaralar keng miqyosda restavratsiya qilinishni boshladi. Islom merosini saqlash va ommalashtirish bo‘yicha davlat siyosati ma’naviy an’alarning tiklanishiga yordam berdi.

Samarqandning muqaddas qadamjolari shahar aholisining madaniy va diniy o‘ziga xosligining ajralmas qismidir. Ziyoratgohlarga tashrif buyurish marosimlar, urf-odatlar, diniy bayramlar bilan birga kechadi. Ushbu ob’ektlar xotira, birlik va tarixiy vorislik funksiyasini bajaradi.

Samarqandning muqaddas topografiyasi makon, diniy amaliyotlar, arxitektura va madaniy xotiraning o‘zaro ta’sirining murakkab tizimidir. Ushbu ob’ektlarni tahlil qilish shaharning tarixiy dinamikasini, shahar o‘ziga xosligini o‘zgartirishni va ma’naviy va madaniy turizmning barqaror rivojlanish istiqbollari chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абрамов М.М. *Гузары Самарканда*. Ташкент: Узбекистан, 1989. 56 с.
2. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий. *Бухоро тарихи*. Тошкент, 1966. С. 28–97.
3. Абу Тоҳирхожа Самарқандий. *Самария*. Тошкент, 1991. 1–2 б.; Абул Ҳакими Самарқандий. *Қандия*. Самарқанд, 1994. 1–3 б.
4. Абул Ҳакими Самарқандий. *Қандия*. Самарқанд, 1994. 2–3 б.
5. Арриан. *Поход Александра*. М.–Л., 1962. С. 138.
6. Бичурин Н.Я. (Иакинф). *Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена*. Т. II. М.–Л., 1950. С. 310.
7. Бобир, Заҳириддин Мухаммад. *Бобирнома*. Тошкент, 1960. 104-бет.
8. Бурякова Э.Ю. *Новые данные к стратиграфии цитадели средневекового Самарканда // Археологические работы на новостройках Узбекистана / Отв. ред. М.И. Филанович*. Ташкент: Фан, 1990. С. 67–71.
9. Бурякова Э.Ю., Мерциев М.С. *Исследования на Регистане Самарканда // Археологические открытия 1975 года / Отв. ред. Б.А. Рыбаков*. М.: Наука, 1976. С. 526.
10. Бухари, Хафиз Таныш. *Шарафнамайи шахи*. Ч. 1 / Пер. с перс., введ., примеч. и указ. М. Салахетдиновой. М.: Наука, 1983. 195–197 с.
11. Заҳириддин Мухаммад Бобир. *Бобирнома*. Тошкент, 1960. 104-бет.
12. История Самарканда. В двух томах. Т. 1. Ташкент, 1969. С. 61; С. 317.
13. Ибн Хавқал. *Китоб сураат ал-ард. Мовароуннаҳр*. Т., ЎзМЭ нашр, 2011. 33-бет.
14. Исамиддинов М.Х. *Генезис городской культуры Самаркандского Согда*. Самарканд, 2000. С. 15.

15. Катаев К. *Самарқанднома*. Тўртинчи тўплам. Тошкент: Mashhur-press, 2017. 69-б.
16. Квинт Курций Руф. *О деяниях Александра Македонского*. Древние авторы о Средней Азии (III в. до н.э. – III в. н.э.). Ташкент, 1940. С. 69.
17. Қораев С. *Ўзбекистон вилоятлари топонимлари*. Тошкент, 2005. 101-б.
18. Маликов А.М., Умаров А.Ш. *Некоторые особенности исторической топографии Самарканда в XVII в.* // Поволжская археология. №1 (39) 2022. С. 206–214.
19. Маньковская Л.Ю. *Ансамбль Регистан* // О‘зМА Ф. Р -2810. 2-ro‘ухат. 149-ish. 1976 г. 1-б.
20. Массон М.Е. *Историческая топография г. Самарканда* // О‘зМА Ф. Р -2773. 3-ro‘ухат. 22-ish. 59-б.
21. Массон М.Е. *Карты и план города Самарканда* // О‘зМА Ф. Р-2773. 3-ro‘ухат. 27-ish. 1921 у.
22. Немцева Н.Б. *Истоки медресе Средней Азии (краткий обзор)* // Самарқанд шахрининг умумбашарий маданий тараққиёт тарихида тутган ўрни. Самарқанд шахрининг 2750 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий симпозиум материаллари. Тошкент-Самарқанд: Фан, 2007. 235-б.